

ISSN: 2181-4066

DOI Journal 10.56017/2181-4066

# JOPAPS




## JOURNAL OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

*Volume 1, Issue 5*

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ



ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОҢ

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

## PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

ТОШКЕНТ - 2023

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 5 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2023-5>

## Бош муҳаррир:

Нишонова З. – психология фанлари доктори, профессор

## Масъул муҳаррир:

Давлатов О. Ғ. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

## Таҳририят аъзолари:

Абдужаббарова М. – педагогика фанлари номзоди, доцент  
Абдурахимов Қ. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Акмалов А. – педагогика фанлари номзоди, доценти  
Акрамова Ш. – педагогика фанлари доктори, профессор  
Алиев М. – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори  
Джураев Д. – педагогика фанлари доктори  
Душанов Р. – психология фанлари номзоди, доценти  
Негматовна Г. – педагогика фанлари номзоди, доцент  
Разакова Р. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тожибоева Г. – психология фанлари бўйича фалсафа доктори  
Тўйчиева С. – психология фанлари номзоди, доцент

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдурахмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

*Педагогика фанлари*

**O'RINOVA Feruza Uljayevna**

*Farg'ona davlat universiteti  
Maktabgacha ta'lim kafedrasida dotsenti,  
pedagogika fanlari nomzodi*

**FAZLIDDINOVA Shaxodat Sirojiddin qizi**

*Farg'ona davlat universiteti  
Maktabgacha ta'lim yonalishi magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7955116>*

## TARBIYACHI FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUVDA KASBIY KOMPETENSIYANING O'RNI

### ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha ta'lim o'quv-biluv faoliyatini ijodkorlikka yo'naltirish muammolari, ta'limda bolalar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi, bolalar ijodiy faoliyatini tashkil etish usullari, yo'llari va samaradorligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ijodkorlik, ijodiy faoliyat, o'qitish, mashg'ulot, maktabgacha ta'lim, o'quv jarayoni, tarbiyachi, bola faoliyati, hamkorlikda o'qitish.

**УРИНОВА Феруза Улжаевна**

*Ферганский государственный университет  
доцент кафедры дошкольного образования, кандидат педагогических наук*

**ФАЗЛИДДИНОВА Шаходат Сирожиддин кизи**

*Ферганский государственный университет  
магистрант*

## РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ТВОРЧЕСКОМ ПОДХОДЕ К ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ

### АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены проблемы направления учебно-познавательной деятельности дошкольного образования на творчество, технология организации творческой деятельности детей в обучении, методы, способы и эффективность организации творческой деятельности детей.

**Ключевые слова:** Творчество, творческая деятельность, обучение, образование, дошкольное образование, образовательный процесс, педагог, активность ребенка, кооперативное обучение.

**URINOVA Feruza Uljayevna**  
*Fergana State University*  
*Candidate of pedagogical sciences*

**FAZLIDDINOVA Shahodat Sirojiddin kizi**  
*Fergana State University*  
*2-year master's degree*

## **THE ROLE OF PROFESSIONAL COMPETENCE IN THE CREATIVE APPROACH TO TEACHER ACTIVITY**

### **ANNOTATION**

The article describes the problems of directing educational and cognitive activities of preschool education to creativity, the technology of organizing children's creative activities in education, the methods, ways and effectiveness of organizing children's creative activities.

**Key words:** Creativity, creative activity, teaching, training, preschool education, educational process, teacher, child's activity, cooperative education.

Tarbiyachi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi kreativlikdir.

Kreativlik termini angliya-amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

J. Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrining ravonligi;
- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olishi;
- o'ziga xoslik (originallik);
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastlik (fantaziya) [1].

Tarbiyachi faoliyatidagi kreativlikning bir necha bosqichlarini belgilash mumkin:

Birinchi bosqichda tayyor metodik tavsiyanomalar ko'chiriladi; ikkinchi bosqichda mavjud tizimga ayrim moslamalar (modifikatsiyalar), metodik usullar kiritiladi; uchinchi bosqichda g'oyani amalga oshirish mazmuni, metodlari, shakli to'la ishlab chiqiladi; to'rtinchi bosqichda o'qitish va tarbiyalashning o'z betakror konsepsiyasi va metodikasi yaratiladi.

Oliy ta'lim tarbiyachisining ijodiy salohiyatini rivojlantirish uning shaxs sifatlarini o'zgartirish, u tomonidan ijodiy faoliyat uslublarini o'zlashtirilishi, unda ijod qilishga ishtiyoqni, ijodiy tafakkurni shakllantirishni nazarda tutadi.

Bu ta'lim-tarbiya jarayonini ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, yangi g'oyalarni yaratish va tatbiq qilishga qaratilgan keng doiradagi o'quv-ijodiy evristik masalalar asosida tashkillash bilan ta'minlanadi.

Tarbiyachining ijodiy salohiyatini rivojlantirishning etakchi komponentlari bu: yo'naltirilganligi, maqsadga intilishi (ijodiy faoliyatga qadriyatli yondashuv, ya'ni, ijodiy faoliyatni amalga oshirishga qiziqishi, intilishi); umumta'lim, maxsus va innovatsion xarakterga ega bilim, ko'nikma, malakalar; faoliyatli komponent (faoliyat uslublari, mantiqiy operatsiyalar, mustaqil bilim olish malakasi); refleksiya, baholash komponenti (o'z ijodiy faoliyatini anglash, tahlil qilish, baholash).

Pedagog olim S.N.Ицеглова tarbiyachilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar yaratishni talab qilinishini ko'rsatadi:

- ta'lim-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, muammoli ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim g'oyalari asoslangan holda tashkillash. Bu tarbiyachilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash va uni yanada rivojlantirishga ko'maklashadi;

- tarbiyachilarning ijodiy faolligini oshirib, ularni ta'lim jarayonida yangi, original maxsulot yaratishga undovchi ijodiy vazifalarni berish;

- tarbiyachilarning ijodiy faoliyat sohasidagi tajribasini kengaytiruvchi usullardan foydalanish. Bunda muammoli vaziyatlar usuli etakchilik qiladi. Ushbu usul fanlararo bog'lanishlarni o'rnatishga, tarbiyachilarda nostandart ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi muammoli vaziyatlarni echishni talab qiluvchi topshiriqlarga asoslanadi;

- tarbiyachilarni nostandart masalalar echishga o'rgatish, ularni bosqichma-bosqich ilmiy-izlanish faoliyatiga olib qirish yoshlarda ilmiy muammolarning echimini topish bo'yicha birlamchi tajribani shakllantiradi;

- ijod mahsulotini reflektiv baholash uslubidan foydalanish [3].

Bugungi kunda tarbiyachidan o'z ustida uzluksiz ishlash, o'z kasbiy mahoratini mustaqil oshirib borish talab qilinmoqda. Buning uchun tarbiyachi o'z pedagogik qobiliyatlari, shu jumladan, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasini bilishi kerak. Bunda maxsus psixologik testlarni qo'llash tavsiya qilinadi.

Rus pedagog olimi V.A. Slastenin tarbiyachining ijodiy faolligini ro'yobga chiqarishning asosiy vazifalarini quyidagicha belgilaydi:

- ijtimoiy mohiyat kasb etgan madaniyatni boyitish;
- pedagogik jarayon va shaxs bilimlarini yangilab turish;
- samarali va ahamiyatli meyorlarni belgilaydigan yangi texnologiyalarni topish;
- shaxsning o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi namoyon qila olishi asosida o'z

rivojlanishini ta'minlash;

Shu tariqa tarbiyachining kreativ faolligini shakllantirish shaxs rivojlanishi va yangilanishining dinamik innovatsion jarayoni sifatida tushuniladi.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy individuallikni xarakterlaydigan samarali o'z-o'zini anglash quyidagilarni qamrab oladi: o'zini boshqalarga qiyos qilish asosida o'z shaxsining betakror ekanligini anglay olishi; o'zi to'g'risidagi kreativ ko'rinishlar va tasavvurlari to'plami; individual kreativ o'ziga xosliklarning bir butunligi va uyg'unligi, ichki birligi; shaxsning o'z rivojlanishidagi dinamiklik va doimiylik jarayoni va uning ijodkor sifatida shakllanishi; shaxs o'zini namoyon qila olishi va o'zining muayyan ishlarni amalga oshirishga hozir turganligi; ijodkor sifatida o'zini baxshida qila olishi va shaxsiy hamda ijtimoiy vaziyatlarda o'zining o'rnini anglay olishi.

## IQTIBOSLAR/ЧОСКИ/REFERENCES

1. F.Vahobova, Sh.Nabixonova, G.Yo‘ldosheva, Z.Rahimova, N.Demina “Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” trenerlar uchu qo‘llanma Toshkent 2009 14, 81, 82 betlar
2. O‘ljayevna O. F. Et al. Innovatsion texnologiyalar yordamida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy salohiyati samaradorligini oshirish yo‘llari //Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – t. 3. – №. 3. – c. 311-315.
3. Urinova F., Azizmatova z., Fazliddinova s. Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – с. 197-202.
4. O‘rinova f. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – т. 2. – №. B2. – с. 557-561.
5. Уринова Ф. У. Особенности развития психологии ребёнка дошкольного и младшего школьного возраста //Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – с. 68-71.
6. Uljayevna u. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern journal of social sciences and humanities. – 2022. – т. 4. – с. 444-448.
7. Uljayevna o. F. Et al. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini takomillashtirishda ilmiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 660-667.
8. Uljayevna u. F. Et al. Creolized texts, their features and possibilities //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 668-673.
9. Uljayevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities /Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – с. 107-110.
10. Uljayevna O. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 654-659.
11. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 47-51.
12. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. THE CONCEPT OF COSMONICS AND ITS NATURE”. International Conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland.ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, January 10th 2022

ISSN: 2181-4066  
DOI Journal 10.56017/2181-4066

# ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

I-ЖИЛД, 5-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ  
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-5

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-5

**«Педагогик ва психологик тадқиқотлар»** электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

**Муассис:** «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

**Таҳририят манзили:** 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

**Телефон номер:** +99894-410 11 55

**Эл. почта:** [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

**Веб-сайт:** [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)